

"BIR" SONINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI TO'G'RIDA**Shuxratova Ohista***Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti**2-bosqich talabasi***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 11.12.2025**Revised: 12.12.2025**Accepted: 13.12.2025***KALIT SO'ZLAR:***mo'ljal, o'xshashlik,
son, turkum, miqdor,
kuchaytirish, noaniqlik**Ushbu maqolada tilning ijtimoiy hodisa ekanligi, uni asrash va rivojlantirish zarurligi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, so'z turkumlariga ajratish masalasi va son so'z turkumiga oid bo'lgan "bir"-miqdor sonining turli xil semantik ma'nolari tahlil etiladi.*

Inson tug'ilibdiki, yakka o'zi jamiyatdan ayro holda yashay olmaydi, albatta, kim bilandir suhbatlashishga, fikr almashishga ehtiyoj sezadi. Aloqa almashinuv quroli esa tildir. Shuning uchun ham, u ijtimoiy hodisa deyiladi va shu bilan birgalikda davlat timsoli va ma'naviyat ko'zgusidir. Bejizga turkiy til asoschisi hisoblanmish buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy tilni "gavhari sharif" deya atamagan. Tilga bo'lgan e'tibor har qaysi davrda dolzarb hisoblangan. Xususan, o'tgan asrda sobiq tuzum davrida jadid bobolarimiz millatning hurlligi uchun til va adabiyot muhim ahamiyatga ega ekamligini anglab yetgan va buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy: "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on o'ynay hayoti uning til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak milliy ruhni yo'qotmak bilan barobardir"⁵⁷, - deya ona tilini millatning mavjudligini bildiradigan hayot oynasiga qiyoslaganligi hozirgi kunda ham naqadar ahamiyatga molik ekanligining guvohi bo'lib turibmiz.

⁵⁷ Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.- Toshkent, 2016- B.18

Milliy til va uni asrash va rivojlantirish hozirgi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masala hisoblanadi. Buni biz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev o'zbek tilining 35 yilligi munosabati bilan O'zbekiston xalqiga yo'llagan quyidagi tabrigi misolida ko'rishimiz mumkin: " Ma'lumki, milliy til har bir madaniy xalqning tarixi va o'zligini, ruhiy- ma'naviy dunyosini o'zida aks ettiradigan tengsiz boylikdir. Qadimiy tariximizning eng og'ir va sinovli davrlarida ham bizni yagona xalq sifatida birlashtirib, azaliy qadriyatlarimizni asrlar osha bezavol saqlab kelayotgan ona tilimizni har qancha ardoqlasak, ulug'lasak arziydi" ⁵⁸.

Milliy tilni asrash va uni kelajak avlodga to'la-to'kis yetkazish hammamizning muqaddas burchimizdir. Bu yo'lda, ayniqsa, tilshunos olimlarimizning o'rni beqiyos. Chunki, tilimiz grammatikasini tartibli va hammaga tushunarli qilib tuzish va unga doir tadqiqotlar olib borish, uni dunyo tillari qatoriga chiqishi uchun harakat qilish ko'proq olimlarimiz zimmasidadir. Shu o'rinda aytmoqchimanki, tilni ma'lum bir tartibga solishga ehtiyoj azaldan mavjud bo'lgan. Jumladan, so'zlarni turkumlarga ajratish masalasi eng qadimgi davrlardan buyon olimlar diqqatini tortib keladi. Dastlab, hindlar so'zlarni otlar, fe'llar, yordamchilarga ajratgan edilar. Hindlarning tilshunoslik g'oyalari bilan oziqlangan arablar so'zlarni uchga: ismlar, fe'llar, yordamchilarga bo'ladilar. Hind tilshunoslari fikrlari asosida yunon olimlari, xususan, Arastu ham so'zlarni ana shunday uchga ajratadi. Keyinchalik faqat yunonlar ismlar ichidan sifatlarni, sonlarni va olmoshlarni chiqaradilar. G'arb tilshunosligida yunonlarning keyingi tasnifi keng tarqaldi. Rus tilshunoslari ham ana shu an'anaga amal qilib, mustaqil so'zlarni ot, sifat, son,olmosh, ravish va fe'lga ajratadilar. Aslida, dastlabki to'rtta so'z turkumining barchasi nomlar sanaladi: narsaning nomi(ot), belgining nomi(sifat), miqdorning nomi(son), nomlar o'rnida almashib keluvchi so'zlar(olmosh). Rus tilshunoslari shuning uchun ularni bir umumiy nom ostida ism bildiruvchi so'zlar nomi bilan birlashtiradilar.

Sharq tilshunosligida antik tilshunoslik bilan mushtarak tomonlar anchagina. Xususan, hind va arab tilshunoslarining qarashlari antik tilshunoslarnikiga anchagina yaqin keladi. Masalan, hindlar to'rt a'zoli, arablar uch a'zoli paradigma ajratganlar. Hindlar ot va fe'l asosiy so'z turkumlaridan tashqari ko'makchi va yuklamani ajratgan bo'lsalar, arablar yuklamanigina ajratadilar. Arab tilshunosligi an'analariga asoslanib dastlabki turkiyshunoslar ham uchta so'z turkumini ham ajratadilar. Masalan, Mahmud Koshg'ariy,

⁵⁸ www.president.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning o'zbek tilining 35 yilligi munosabati bilan O'zbekiston xalqiga yo'llagan tabrigi.

Mahmud Zamaxshariylarda ham ana shunday uchlik kuzatiladi. Keyinchalik, A.Navoiy ham ana shunday uchta soʻz turkumini ajratgan, biroq oʻz navbatida ot va feʼl turkumiga xos jihatlarni aynan turkiy tillar xususiyatlariga asoslanib ancha mukammal izohlab bera olgan. Yana shunga eʼtibor berish lozimki, bu uchta soʻz turkumi ichki boʻlinish xususiyatiga ega. Xususan, Mahmud Koshgʻariy arab tilshunosligi vorisi sifatida anʼanaviy uchta turkumni ajratsa-da, ot, sifat, son, olmosh, feʼl, koʻmakchi va undovlarni ancha izchil farqlagan.

Hozirgi vaqtda oʻzbek tilida soʻz turkumlari, dastlab uchga: mustaqil, yordamchi va koʻmakchilarga boʻlinadi. Ular oʻz ichida yana boʻlinish xususiyatiga ega. Xususan, mustaqil soʻz turkumlari ot, sifat, son, feʼl ravish va olmoshga boʻlinadi va morfologiyani oʻrganish obyekti hisoblanadi.

Miqdor nomini bildiruvchi soʻzlar oʻzbek tilshunosligida bir qator olim va olimalar tomonidan oʻrganilgan. Xususan, M. Asqarovning "Oʻzbek tilida son kategoriyasi" qoʻlyozmasi, S. Nizomiddinovaning "Hozirgi zamon oʻzbek adabiy tilida son" nomli kandidatlik dissertatsiyasi va A. Muhammadjonov, I. Madrahimov, I. Islomov kabi olimlarning ilmiy ishlari shular jumlasidandir.

Son predmetning sanogʻini, tartibini koʻrsatuvchi soʻz turkumi hisoblanadi. Son sanaladigan predmet bilan birga qoʻllanmaganda, yaʼni matematik son maʼnosida kelganda u son oti hisoblanadi. Bunday vaqtda sonning maʼnosi mavhum xarakterga ega boʻladi. Misol uchun, bir, oʻn, yuz, oʻndan olti, besh kabi sonlar ot bilan birga qoʻllanmaganda faqat sonlarning nomu hisoblanadi. Sonlar sanaladigan predmetlar bilan birga qoʻllanganda u son turkumini tashkil qiladi ⁵⁹. Masalan, *Bir* ona bilan *bir* oʻgʻil yasharkan (Shukrullo. Tirik ruhlar. 21-bet). Ushbu gapda "bir" soʻzi son turkumiga oid soʻz va "ona", "oʻgʻil" soʻzlari sanalmishlar hisoblanadi.

Oʻzbek tilida miqdor tushunchasi asosan yigirma ikkita soʻz bilan ifodalanadi. Bulardan toʻqqiztasi birlik sonlarni bildiradi: bir, ikki, uch, toʻrt, besh, olti, yetti, sakkiz, toʻqqiz; toʻqqiztasi oʻnlik sonlarni bildiradi: oʻn, yigirma, oʻttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, toʻqson; toʻrttasi yuqori miqdorni anglatadi: yuz, ming, million, milliard ⁶⁰.

Son soʻz turkumi maʼnoviy guruhiga koʻra dastlab miqdor va tartib sonlarga boʻlinadi. Miqdor sonlar esa sanoq, dona, chama, jamlovchi va taqsim sonlarga boʻlinadi ⁶¹. Sanoq son

⁵⁹ Oʻzbek tili grammatikasi. I. - Toshkent: Fan, 1975. - B.307.

⁶⁰ Hozirgi oʻzbek adabiy tili. I. - Toshkent: Fan, 1966. - B.240.

⁶¹ Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. - Toshkent: Инновацион ривожланиш, 2020. - B. 258-263.

sirasida "bir" so'zi qo'llanish va vazifasi jihatidan qator o'ziga xoslikka ega. Bular quyidagicha:

1. "Miqdor" ma'nosi: Sendan tilayajak bir tilagim bor (Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. 25-bet). Ushbu gapda bitta tilagi borligini, ya'ni aniq miqdorini ifodalab kelgan, ikkita yoki uchta yoki noaniq emas.

2. "Noaniqlik" ma'nosi: Shunda, peshonamdan bir soya kela beradi (Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. 27-bet). Ushbu gapda "bir" so'zi kelayotgan odamning kimligi aniq emas, balki noaniqligini ifodalab kelmoqda. Ya'ni asarda Dehqonqulning tushimi, o'ngimi bilmay g'alati ahvolga tushib ko'chaga chiqib ketganda, oldidan kelayotgan odamning kimligini tanimay, "bir" so'zini ishlatganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

3. "Harakatning belgisi" ma'nosi: Bolalar joylaridan bir turib oladi (Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. 29-bet).

4. "Mo'ljal" ma'nosi: Siz ertaga oldimga bir kelib keting.

5. "O'xshashlik" ma'nosi: Sen meni o'zingdayin bir to'pori kofir deb o'ylab edingmi? (Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. 24-bet) Ushbu gapda "bir" so'zi "to'pori kofir"ning sonini emas, balki unga o'xshash yoki o'xshash emasligini ifodalash uchun ishlatilgan.

6. "Kuchaytirish" ma'nosi: Qizlar bir xushro'y bo'ladi, bir xushro'y bo'ladi (Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. 43-bet). Ma'lumki, xususiyat sifatlarini sanay olmaymiz, shuning uchun, ushbu gapda "bir" so'zi sifatning miqdori yoki sonini emas, balki ma'nosini kuchaytirish uchun ishlatilgan.

7. "Navbatma- navbat" ma'nosi: O'zimni bir o'ng oyog'imga tashlayman, bir chap oyog'imga tashlayman (Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar 31-bet). Ushbu gapda birinchi bir ish-harakat, undan keyin keyingi ish-harakat navbatma-navbat sodir bo'layotganligini ifodalash uchun "bir" so'zi ayiruv bog'lovchisi bo'lib kelgan.

8. "Bir xil" ma'nosi: Tiling bilan dilingni bir qilgin.

9. Jo'nalish kelishigida "birgalik" ma'noli ravishga o'tadi: Hast eshon bilan birga borib, u kishi tufayli shuncha izzat-ikrom ko'rib, noz-ne'matga serob bo'lib... hast eshondan burun qochib kelganingiz nimasi? (Cho'lpon. Kecha va kunduz. 11-bet)

10. Chiqish kelishigida "to'satdan" ma'noli ravishga o'tadi: Zebi bu so'zni chin ko'ngildan chiqarib va jerkib turib aytgan bo'lsa ham, qizlar hammasi birdan kulishib yubordi (Cho'lpon. Kecha va kunduz. 21-bet).

11. - day shakli bilan ravish bo'lib keladi: Tabiat, jonivorlar hayotidan so'ylaguvchi mazkur kitob yetti yashar kitobxon uchun-da, yetmish yashar kitobxon uchun-da birday suyuqli, birday ardoqlidir (Tog'ay Murod.Otamdan qolgan dalalar. 167-bet).

12. - ov affiksini olib, "gumon" ma'noli olmosh hosil qiladi: Birov pichoq oladi (Tog'ay Murod.Otamdan qolgan dalalar. 31-bet).

13. - or/ - on affiksini olib keladi: Xudo yo'lda biror kor-holga giriftor etadi (Tog'ay Murod.Otamdan qolgan dalalar. 12-bet). Kim biladi, biron nimaga yo'liqqanmi (Tog'ay Murod.Otamdan qolgan dalalar. 44-bet). Ushbu gaplarda biror va biron so'zlari "qandaydir bir", "mavhum" kabi ma'nolarni anglatgan.

14. - gina yuklamasi bilan "chegaralash" ma'nosi: Dunyoda qanday yaxshilik va xayriyatlik bo'lsa, hammasini shu birgina qizi uchun istar va orzu qilardi (Cho'lpon. Kecha va kunduz. 6-bet).

15. Fonetik o'zgargan ham yuklamasi bilan "kuchaytirish" ma'nosi: Halima onaning nabirasi biram chiroyli qiz bo'libdi-ya!

16. -oq elementi bilan zidlov bog'lovchisi vazifasida: O'zing yaxshisan-u, biroq shu qilig'ing yomon-da!

Shuningdek, bir so'zi rov, pas, nafas, zum, payt, yil, vaqt, oy, kun, necha, muncha, qadar, nima, narsa, qator, talay, xil, ba'zi, har kabi so'zlar bilan birga kela oladi. Misollar:

a. Bir nafas kavshanmay qoldim (Tog'ay Murod.Otamdan qolgan dalalar. 87-bet).

b. Bir katta bir nima o'qib-o'qib berdi (Tog'ay Murod.Otamdan qolgan dalalar. 98-bet).

d. Uyidan "Bir zumda borib kelaman", deb chiqqan Salti ham bergan va'dasini,uyini va ota-onasini unutib, qo'lida maymoq va tullagan bir supurgi bilan qolib ketmaganmidi? (Cho'lpon. Kecha va kunduz.15 -bet).

e. Hay, qishga bir talay bor, halitdan uyga ko'chayotirsizmi? — dedi Xadichaxon sahndan o'ta turib (Cho'lpon. Kecha va kunduz. 199-bet).

f. Aybdor o'zi har bir savolga bergan javobi bilan jinoyatini iqrar qildi (Cho'lpon. Kecha va kunduz. 253-bet).

g. Xonaqo ichidan ham yo'tala-yo'tala bir necha kishi chiqib ketdi (Cho'lpon. Kecha va kunduz. 258-bet).

Bundan tashqari, bir so'zi takrorlanib kela oladi va quyidagicha ma'nolarni anglatadi: bir-bir ("tartib bilan" ma'nosida), birma-bir ("batafsil" ma'nosida), birdan-bir ("yagona" ma'nosida), bir-biridan ("o'zaro" ma'nosida), bir-biriga ("biri ikkinchisiga" ma'nosida). Misollar:

a. Uning kamar va to'nlari bir-bir olib, qoziqqa ildi (Cho'lpon. Kecha va kunduz. 244-bet).

b. Butun islom olami, musulmon o'lkalari birma-bir ajnabiylar qo'liga o'tayotir (Cho'lpon. Kecha va kunduz. 176-bet).

d. So'fining arz qilib boradigan birdan-bir mahkamasi yana eshon boboning xonaqolari edi (Cho'lpon. Kecha va kunduz. 260-bet).

e. Katta gazatlarda katta xabarlar bor, bir-biridan yomon...(Cho'lpon. Kecha va kunduz. 128-bet).

f. Butun qavm bir-biriga kirishib ketdi...(Cho'lpon. Kecha va kunduz. 216-bet).

O'zbek tilida bir so'zi ilk, yakka, yolg'iz, yagona so'zlari bilan ma'nodoshlik kasb etadi: Mening bir qizim bor, undan boshqa mehribonim yo'q.

Xulosa qilib aytganda, tilning inson hayotida, jamiyatda o'rni beqiyos. Uni o'rganish, o'rgatish, tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, son so'z turkumini o'rganish, tasniflash va uning har bir o'rganish obyekti chuqur tahlil etish tilshunoslikda katta ahamiyatga ega. Xususan, bir so'zi turli semantik mazmun kasb etishini ko'rib o'tdik: miqdor, noaniqlik, mo'ljallik, o'xshashlik, harakatning belgisi, kuchaytirish, navbatma-navbat, bir xil. Bundan tashqari, ushbu so'z yakka va takror holda qo'llanib, boshqa so'z turkumlari (sifat, ravish) bilan ham ma'nodoshlik hosil qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent, 2016- B.18.
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I. - Toshkent: Fan, 1966. - 391 b.
3. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ, 2020. - B. 258-263.
4. Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. -Toshkent: Sharq, 1994. - 168 b.
5. Tursunov U. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston,1992. - 400 b.
6. O'zbek tili grammatikasi. I. - Toshkent: Fan,1975.- B.307.
7. Shoabdurahmonov Sh. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I.- Toshkent: O'qituvchi, 1980.- 446 b.
8. Cho'lpon. Kecha va kunduz. - Toshkent: Sharq, 2000.- 272 b.
9. www.president.uz.